

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
KASB TA‘LIMI FAKULTETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»

**Kasb ta‘limi fakulteti dekani,
dotsent _____ X.Mavlyanov**

**«__» _____ 2019-yil 5110800-
Tasviriy san‘at va muxandislik
grafikasi yo‘nalishi talabasi Mahliyo
Mutalibxonova Faxriddinxon qizining**

**XX ASR O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN‘ATIDA PORTRET
JANRI RIVOJLANISHINI TAHLILIY O‘RGANISH
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

**Tasviriy san‘at va muxandislik
grafikasi kafedrası mudiri**

_____ dots. O‘.Abdullaev

«__» _____ 2019 y.

BMI rahbari: dotsent, s.f.n.

_____ D.Pulatov

MUNDARIJA

KIRISH	4
---------------------	----------

I-BOB

XX ASR O‘ZBEKISTON SAN’ATINING TARIXIY NAZARIY

MASALALARI

1.1. XX asr boshlarida O‘zbekiston tasviriy san’ati	10
1.2. XX asr 30-yillari O‘zbekiston tasviriy san’atida portret janri	20
1.3. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr portret janri rivoji	24

II-BOB

XX ASR OXIRI O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA PORTRET

JANRI

2.1. Mustaqillik yillari O‘zbekiston tasviriy san’ati	30
2.2. Mustaqillik yillari O‘zbekiston rangtasvirida portret janri	35
2.3. Raxim Axmedovning portret janridagi ijodiy faoliyati	39

Xulosa	41
---------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar	45
--	-----------

Internet ma’lumotlari	47
------------------------------------	-----------

Ilova	
--------------------	--

KIRISH

1991 yilda e'lon qilingan Mustaqillik O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Qisqa tarixiy davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Mustaqillikning ilk yillardayoq O'zbekiston xalqaro huquqiy sub'ektga aylanib, 1992 yil BMTga, 1993 yili YUNESKOga a'zo bo'ldi. Buyuk vatandoshlarimiz – Imom Buxoriy, Xakim At-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshbandiy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg'inoniylarning nomlari qayta taklandi. O'tmishning buyuk mutaffakkirlari, shoirlari va musavvirlari – Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhammad Samarqandiy hamda jadidchilik harakati vakillarining nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda. Ularning sharafiga yodgorlik majmualari qurilib, kitoblar chop etilmoqda, faoliyatlari keng targ'ib qilinmoqda. Ulug' sohibqiron Amir Temurning tariximizda tutgan o'rni va ahamiyati ham nihoyat haqqoniy o'rganildi.

Malakali yetuk kadrlar tayyorlash va ularni ijodkorligini oshirish uchun ta'lim-tarbiya sifatini va samaradorligini oshirish lozim bo'ladi. Ta'lim-tarbiya sohasida me'yoriy xujjatlarda ko'zda tutilgan talablar asosida o'qitilsa, biz yuqorida nazarda tutilgan maqsadga erishamiz. Yoshlarimizni ish o'rganib, kasb-hunarga ega bo'lishlari uchun alohida e'tibor berilgan. Yoshlarni biron bir ilm o'rganishlari uchun dastavval unga nisbatan qiziqishini uyg'otish kerak. Misol uchun, maktablarda tasviriy san'at faniga o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchilarni erkin mavzuda rasm chizishlariga, ularni ijodkorlik qobiliyatlarini yanada oshirishga e'tibor berish lozim. Ijodkor shaxs atrofida bo'layotgan kasbiy, siyosiy va boshqa muammolarga tez moslasha oladi.

Prezidentimiz o'zining “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” asarida

ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvolini tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar¹.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritiladigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib tarqalishining guvohi bo'lamiz.

O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar Osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo'lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy - ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik – badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg'otadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekistonda tasviriy san'at maktabi shakllandi, ammo rassomlarning ijodiy salohiyati uzoq yillar moboynida qattiq mafkuraviy nazorat ostida bo'lishga qaramay rivojlanishdan to'xtamadi. Mustaqillik bergan ijod va ruh erkinligi rassomlarning o'z-o'zini badiiy ifoda etishlari uchun yangi kuch-quvvat berdi, ular endilikda mavzu va uslub tanlashda, istagan mavzusida ijod qilish huquqiga ega. Ayni paytda rassomlarning ijodida avvalgi davrda ko'rsatish mumkin bo'lmagan o'z falsafiy qarashlarini ifoda etish

¹ Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil. 16 yanvar

imkoniyati, davrlarning aloqadorligini ko'rsatish, tarixiy xotirada parchalab bo'lmashligini isbotlashga intilishlari ko'zga yaqqol tashlana boshlandi.

1990-yillar rangtasvir san'ati o'tish davriga xos bo'lgan turli-tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Bu ko'lamda akademik realizm, dekorativlik va milliy-romantizm (ko'p hollarda miniatyura oxanglari talqinida), qiyofasiz rangtasvir, instaliyasiya echimi tarzidagi avangardizm yonma-yon tarzda shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z o'rnida ijodiy dunyoqarashning kengayish va teranlashuvi, mualliflarning belgilangan qoliplar chegarasidan chetga chiqishga bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi.

1997 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil topishi Respublika madaniy hayotida eng muhim, tarixiy voqea bo'ldi. Uning faoliyati badiiy ta'lim ko'rgazmalarini takomillashtirish va badiiy merosini hamda zamonaviy san'atni targ'ib qilish istiqbolini ta'minlashga yo'naltirildi. Akademiklar orasida ustoz rassomlar – faxriy akademiklar R.Ahmedov, A.Abdullaev, N.Qo'ziboev, M.Saidov, R.CHoriev, J.Nabievlar hamda O'zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a'zolari – V.Burmakin, A.Ikromjonov, T.Qo'ziev, T.Mirjalolov, J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Mirzaev, J.Izintaev, L.Ibragimov, B.Boboev, Y.Tursunnazarov, S.Abdullaev, Akmal Nur va boshqalar bor. Turli avlod rassomlaridan iborat akademiklar tarkibi ramziy ma'noda mamlakat tasviriy san'atining XIX asr oxiri va XX asrda bosib o'tgan turli xil uslubiy yo'nalishlarini, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ifoda etadi.

Rassomlar hayoti va ijodini yoritib berishda san'atshunos olimlarimiz tomonidan juda ko'plab adabiyotlar yoritildi. N.Abdullaev, R.Xasanov, A.Umarov, A.Egamberdiev, M.Ahmedov, O.Usmanov, I.Azimov, A.Madraimov, N.Normatov, B.A'zimova, B.Oripov va boshqalar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma, darslik, monografiyalar hozirda asosiy ilmiy manbalar bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik natijasida yuz bergan ijtimoi-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy o'zgarishlar ta'lim sohasida ko'p islohotlar o'tkazishini, ta'lim-tarbiya ishlarini davr va zamon talablari darajasiga olib chiqishni talab qildi. SHu boisdan ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va

rivojlantirish printsiplari” qismida ta’limning ijtimoiylashuvi ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishni alohida ta’kidlandi. Inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo’lib, uni tasviriy san’atsiz va rangtasvir asarlarisiz, tarbiyani tasavvur qilib bo’lmaydi.

SHundan kelib chiqqan holda biz ham tanlagan mavzuni o’rganilganlik holatini ilmiy tahlil qilishimiz zarur bo’ladi.

Bizga ma’lumki milliy rangtasvir san’atimiz miniatyura san’ati kitobat san’ati bilan hamohang, birgalikda shakllangan. XIX asrning 60-yillarida CHor Rossiyasi tomonidan O’rta Osiyoni bosib olinishi bilan G’arb san’ati kirib keldi. XX asrning 1-yarmidan esa O’rta umumta’lim maktablari tashkil qilinib, ularda tasviriy san’at fani o’quv predmeti sifatida o’qitila boshlandi. Bu paytda Qoraxon, B. Ben’kov, B.Hamdamiy, SH.Xasanova kabi yosh rassomlar etishib chiqdi.

1930-yildan Iskandar Ikromov tomonidan rasm chizishni o’qitish bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi rasm chizishni o’rgatishga tamal toshini qo’ydi. Asosan rus tilida N.Rostovsev, V.Kuzinlar tomonidan nashr qilingan adabiyotlar o’zbek tiliga tarjima qilib o’rgatila boshlandi. O.Apuxtinni “Tasviriy san’at asoslari” hamda “Tasviriy san’at haqida suhbatlar” kitoblarida rassomlarning asarlari tahlili berilgan. Unda ham asosan rus rassomlarining ijodi yoritilgan. N.Abdullaevning rus tilida nashr qilingan “Peyzajnaya jivopis’ Uzbekistana”, shuningdek, A.Egamberdievning ham rus tilida chop qilingan “Janrovaya jivopis’ Uzbekistana” (T.1989) kitoblarida o’zbek rassomlari ijodi yoritilib berilgan. M.Myunts va D.Faxriddinova kirish so’zi bilan chop qilingan “O’zbekiston tasviriy san’ati” (T.1976) kitobida ham o’zbek rassomlari ijodi berilgan, biroq ularda ham asosan sobiq ittifoq mafkurasiga mos keladigan asarlar berilgan xolos.

CH.Axmarov, O’.Tansiqboev, B.Ben’kov, A.Abdullaev, L.Abdullaev, S.Abdullaev, A.Mirzaev kabi ustoz rassomlar hayoti va ijodiga bag’ishlangan adabiyotlar ham nashr etilgan. Biroq, ular qanchalik qadrli bo’lmasin, tanlangan mavzuga oid alohida adabiyot uchratmadik.

Mavzuning dolzarbligi: YUqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tanlangan mavzuimiz dolzarb mavzu bo‘lib, uni biz “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda tasviriy san‘at” deb belgiladik.

BMIning ilmiy yangiligi. Mustaqil O‘zbekistonda tasviriy san‘atning rivojlanishiga o‘zining munosib hissalarini qo‘shgan, unga tamal toshini qo‘ygan mo‘yqalam sohiblarini ijodlarni o‘rganib chiqishimizda va uni ilmiy tahlil qilishimizda ko‘rinadi.

BMIning amaliy ahamiyati esa mavzu materiali san‘at tarixining, rangtasvir san‘atining boshqa turlarini yoki muayyan bir davr yoki rassom ijodini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. SHuningdek, mavzu materiali o‘zida kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-qiyofasini, didini hamda tasviriy san‘at tarixi darslari samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

BMIning metodologik asosini Mustaqil O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi davlat xujjatlari, darslik, qo‘llanma va rassomlarning estalik, kundalik, qo‘lyozmalari, gazeta hamda jurnal materiallari tashkil qiladi.

Tadqiqot ob‘ekti. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi O‘zbekiston tasviriy san‘ati, xususan, rangtasvir san‘atida o‘z asarlari bilan munosib o‘ringa ega bo‘lgan, o‘zining nodir asarlarini kelajak avlodga qoldirganorassomlar asarlari, ko‘rgazmali zallari, rassom ustaxonalari xizmat qiladi.

BMIning maqsad va vazifalari. Mavzuning to‘liq yoritib berish uchun bitiruv malakaviy ishimizning maqsad va vazifalarni quyidagicha belgilab oldik:

- XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda tasviriy san‘atning rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib chiqish;
- bu davrda ijod qilgan rassomlar hayoti va ijodini o‘rganish va tahlil qilish;
- mavzuga oid asarlar bibliografiyasini tuzish, ularni ishlanish uslublariga ko‘ra turlarga ajratish;
- tadqiqot natijasiga ko‘ra xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

San‘atning, shu jumladan, tasviriy san‘atning (nafis san‘at, haykaltaroshlik, grafika va h.) eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u

hayotni aks ettiradi, dunyoni bilishda insonlarga yordam beradi, uni g'oyaviy estetik jihatdan tarbiyalaydi. Inson san'at bilan juda qadim zamonlardayoq shug'ullana boshlagan. San'at uning mehnat jarayonining ajralmas qismi edi. Odamlar ibtidoiy quldorlik tuzumi davridayoq san'atning mohiyatini tushunishgan, unga ijtimoiy ong shakllariidan biri deb qarashgan. Inson o'z badiiy asarlarida hayotda muhim, zarur deb bilgan narsalarni aks ettirgan.

Insonning mehnat jarayonida, ov paytlarida idrok etgan dastlabki obrazlari inson qo'li, yovvoyi hayvonlar obrazlari bo'lgan edi.

San'at inson ijtimoiy hayotining ajralmas bir qismi va ehtiyojiga aylangach, u o'z asarlarida jamiyat intilishlarini ifodalaydigan bo'ldi. San'at hayotni bilishi, uni alohida vositalar yordamida aks ettirishi va jamiyatga muayyan ta'sir ko'rsatishi natijasida ijtimoiy ong formalaridan biriga aylandi, unga faqat borliqni o'zlashtiruvchigina emas, balki insonni yangi bilim va obrazli tasavvurlar bilan boyituvchi qudratli bir kuch deb qaraldi.

Tasviriy san'at asarlari inson uchun bitmas-tuganmas ma'naviy boylikdir. Bularni misollar bilan tushuntiramiz.

Ibtidoiy insonlar hayotini arxeologik qazilmalar yordamida tasavvur etishimiz mumkinmi? Mumkin, albatta, lekin inson qo'li bilan - o'sha davr odamlarining qo'li bilan yaratilgan tasvirlarni ko'rib, ular hayoti to'g'risida to'la tasavvur hosil qilamiz.

Bu jihatdan o'n ming yillar burun yashagan noma'lum rassomlar tomonidan ishlangan ov manzaralari alohida ahamiyatga ega.

Ibtidoiy odamning qanday ov qilganini, ovchilarning o'zlarini qanday pana qilganliklarini, o'sha davrdagi yovvoyi hayvonlarning turlarini biz O'zbekistonning Termiz shahri yaqinidagi Zaraytsoy darasida topilgan bir toshga o'yib ishlangan rasmlare yordamida tasavvur etishimiz mumkin.

Bu tasvirlar uzoq o'tmishdagi nafis san'atning ahvoli haqidagina emas, shuningdek, ovchilarning ov usullari haqida ham hikoya qiladi.

Yana bir misol, Shimolda yoki Rossiyaning o'rta mintaqasida yashamagan, uning tabiati haqida tasavvurga ega bo'lmagan o'zbekistonlik

kishi Rossiya tabiatining go‘zalligini I.I.Shishkin, I.I.Levitan, va boshqa rassomlarning asarlaridan bilib olishi mumkin. Aksincha, O‘zbekistonga kelmagan har qanday xorijlik, O‘zbekiston tabiati, urf-odatlari, an‘analari, ijtimoiy hayot aks ettirilgan, P.Benkov, O‘rol Tansiqboev, Rahim Axmedov kabi o‘zbek rassomlari tomonidan ishlangan asarlarni tomosha qilib, bu yurt haqida tasavvurga ega bo‘lishlari mumkin.

San‘at – obrazli tafakkurdir². Hayotni bilish va umumlashtirishning san‘atdagi asosiy shakli badiiy obrazdir.

² В.Г.Беленский. Собрание сочинений. Уч томлик. ГИХЛ. Москва, 1948 йил, 67-бет.

I-BOB. XX ASR O‘ZBEKISTON SAN’ATINING TARIXIY NAZARIY MASALALARI

1.1. XX asr boshlarida O‘zbekiston tasviriy san’ati

XX asr boshlarida O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, san’atda ham o‘z ifodasini topdi. Buni dekorativ amaliy san’at asarlaridagi kompozitsiyalarda, ularning syujet va motivlarida, real hayotning tasvirlanishida, voqe’likni ustalar tomonidan real tasvirlashga intilishlarida ko‘rish mumkin. Bunday o‘zgarishlar rus va o‘zbek me’morchilik san’ati an’alarining bir-biriga yaqinlashishi va qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan yangi uslublarda ham namoyon bo‘la boshladi. Realistik dastgoh san’ati maydonga keldi. Buni birinchi bo‘lib, XIX asrning 40-yillaridan boshlab O‘rta Osiyoga kela boshlagan rus badiiy maktabining talabalari boshlab berdilar. Bu borada rus rassomlari A.Karazin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommer, 1886 yilgi ko‘rgazmada toshkentlik To‘xta-Sodiq Xo‘jaevning alebstrdan yasagan ot va kiyik haykalchalarining qo‘yilishi, 1915 yil bosmadan chiqqan S.Siddiqiyning “Ko‘ro‘g‘li” epik poemasi ga ishlangan grafik illyustratsiyalarining yuzaga kelishi davr taqozosi edi. O‘zbekistonda san’atni targ‘ib etish, ko‘rgazmalar uyushtirish, muzeylarni milliy lashtirish kabi ishlar amalga oshirildi. 1918-20 yillarda Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko‘plab mahalliy yoshlar jalb etildi. Bunda rus va boshqa milliy rassomlar faol ishtirok etdi. SHu bilan birga o‘zbek xalq san’atini o‘rganish orqali rassomlar haqiqiy milliy san’at namunasini yaratishga, o‘z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. SHunday rassomlardan biri O.K.Tatevosyan bo‘ldi. Korovinning shogirdi bilan bu rassom 1915 yil birinchi bor O‘zbekistonga keldi. Uning serjilo tabiati, boy me’morchilik yodgorliklari yosh rassomni o‘ziga mahliyo etdi. O‘zbekistonda o‘z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini his qilgan rassom o‘qishni bitirgach, butunlay O‘zbekistonga ko‘chib keldi va o‘zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning ilk ijodidagi asarlar asosan Samarqandga bag‘ishlangan. Gavjum ko‘chalar, noz-ne‘matga boy bozorlar, choyxonalar

rassomning ko'pgina asarlarining mazmunini tashkil etdi. Xalq milliy san'at namunalarini o'rgandi. Asarlarida O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarishlarni, odamlarning mehnatga bo'lgan munosabati badiiy ifodasini topa boshladi. O'sha yillari O'zbekistonda bir qator iste'dodli rassomlar yashab ijod qilganlar. Bular ichida Farg'onada tug'ilib o'sgan Aleksandr Volkovning asarlari juda rang-barang va falsafiy mazmunga boy. Voronejdan kelgan va butun umr Toshkentda yashab ijod qilgan Usto Mo'min (Nikolaev) bir qator ajoyib nafis, lirik, shoirona asarlar yaratdi. Davr kayfiyati, kishilarning hayotga bo'lgan yuksak munosabati uning asarlarida o'zining haqiqiy poetik ifodasini topdi. Uning shunday asarlari ichida "Bahor", "Bedanaboz", "Do'stlik", «Muhabbat», "Kuyov", "CHoyxonachi" kabilardir.

O'zbekistonda samarali mehnat qilgan rus rassomlaridan biri Pavel Petrovich Benkov edi. U o'zbek san'atining rivojlanishiga, milliy kadrlar etishib chiqishiga katta hissa qo'shdi. U Buxoro, Xiva, Samarqand haqida juda ko'p polotnolar ishlagan. Bular asosan yarim manzara va yarim maishiy janrda bo'lib, ularda rassom kundalik xalq turmushini qadimgi nodir me'morchilik fonida ustalik bilan tasvirlaydi. Ajoyib ayollar obrazini ham yaratadi. "Dugonalar", "Dutorchi qiz" deb nomlangan asarlar do'stlik mavzusida yaratgan yirik asarlaridir. 20-30-yillardan boshlab milliy rassomlar ko'rina boshlandi. Ular o'zlarining dastlabki asarlari bilan respublika badiiy ko'rgazmalarida ishtirok etib, badiiy hayotni yanada jonlantirdilar. Bu yillarga kelib san'at mavzusi kengaydi. Do'stlik, tinchlik, mehnat go'zalligini kuylovchi asarlar yaratildi. Iste'dodli yosh rassom Bahrom O'amdamiyning "Ish tugadi" deb nomlangan kartinasi shu davrda kishilar ongida sodir bo'lgan o'zgarishlar o'z ifodasini topdi. SHu bilan birga Lutfulla Abdullaevning "YOsh shoir uyidagi uchrashuv" deb nomlangan asar yoshlar orasida san'at va ma'rifatga intiluvchi yoshlarning fazilatlarini ochib berishga bag'ishlangan. Bu yosh rassomlar O'zbekiston san'atining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Tasviriy san'atning rangtasvir turi, ayniqsa, uning moybo'yoq texnikasida asarlar yaratgan mahalliy rassomlar va ular ijodida portret janrini tutgan o'rni

haqida ma'lumotlar juda ham kam. Borlari esa Sobiq Ittifoq partiyasining g'oyalari "lenincha ta'limotga" asoslangan tarzda chop qilingan. Bu san'atning dastlabki namunalarining birinchi mualliflari XIX asr o'rtalaridan Markaziy Osiyoga G'arbdan kirib kelgan xorijlik rassomlar hisoblanadi. Markaziy Osiyoga chetdan kirib kelgan rassom va haykaltaroshlar 40 nafardan ortiq bo'lib, ularning ayrimlar keyinchalik Markaziy Osiyo hududida, jumladan, O'zbekistonda butunlay qolib, uni o'zlarining ikkinchi vatanlariga aylantirdilar, shu erda murabbiylik qilib, Evropacha san'at asoslarini, moyli bo'yoq bilan ishlash usullarini mahalliy yoshlarga o'rgatdilar.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda bo'lgan rassomlar ichida rus rassomlari V.V.Vereshchagin, N.N.Karazin, D.Velejev, Dmitriy Kavkazskiy, R.Zommer, O.Fedchenko, haykaltarosh O.Mikeshin, ukrainalik rassom S.Svetoslavskiy, gruziyalik rassom G.Gabashvili va boshqalar bor.³ Ular grafit qalam, tush, akvarel, guash, kabi tasvirlash vositalari yordamida grafik asarlar ishlash bilan bir qatorda tempera va moybo'yoq yordamida rangtasir asarlari ishlab maishiy, manzara, portret janrida ijod qilganlar. Ularni o'zining go'zalligi bilan lol qoldirgan Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi qadimiy shaharlar va ulardagi qadimiy me'morlik inshootlariga bag'ishlab naturadan ishlaganlar.

Bu rassomlarning ko'pgina asarlari Evropa ko'rgazma zallarida namoyish qilingan, gazeta va jurnallarda, ilmiy risolalarda chop etildi. Bu davrda yaratilgan asarlarning kattagina qismi etnografik xarakterdagi asarlardan iborat bo'lib, ularda SHarq me'moriy obidalari, ko'xna va navqiron shaharlarning o'ziga xos bo'lgan ko'chalari, sharqona bozorlari tasvirini naturadan real ishlash asosiy o'rin tutadi.

O'zbekitonga kelgan G'arblik rassomlarni yangi o'lka odamlarining ko'rinishi, uruf-odati, kiyinish madaniyati, yashash sharoiti, chamanzor bog'u-roq'lari, me'morlik obidalari, xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik namunalari ohangrabodek o'ziga tortgan. Rassomlar ularni iloji boricha juda ham katta

³ Н. Абдуллаев. Санъат тарихи. Икки жилдлик. Биринчи китоб. Т.; 2001. 169-170-бетлар.

aniqlikda, har bir buyumni butun borlig'i bilan tasvirlashga harakat qilishgan. Ular uchun naturadan rasm ishlash asosiy uslub hisoblangan.

V.V.Vereshchagin (1842-1904) bolaligida Kadetlar korpusida taxsil olgan bo'lib, u Markaziy Osiyoga CHor Rossiyasi harbiy qo'shinlari safida keladi va harbiy janglarda shaxsan tashabbus ko'rsatib qatnashadi. Harbiy ma'lumot to'plash maqsadida xalq orasiga kirib boradi, moybo'yoq va qalamda mahalliy xalq vakillarining rasmlarini ishlaydi. Bu rasmlar asosida Vereshchaginning "Turkiston" turkum asarlari yaratilgan. Undagi 345 tadan ortiq turli qalamtasvir, etyud va rangtasvir asarlarini to'rt guruhga ajratish mumkin: O'rta Osiyolik odamlar, me'moriy obidalar va xalq amaliy san'ati ko'rinishlari, xalq hayoti va turmush tarzi hamda urf- odatlari va nihoyat, jang manzaralari bilan bog'liq yirik asarlar. Rassom O'rta Osiyolik odamlarga bag'ishlagan asarlarida mahalliy aholining kiyinishi, tarixiy obidalarni, tabiatini tasvirlashga harakat qilgan. Jumladan, uning "Tojik yigiti", "Qashqarli yigit", "Ko'knorixo'rlar", "Zindonda", "Qul savdosi", "Amir Temur maqbarasi eshigi oldida" va shu kabi boshqa asarlarini misol qilib keltirish mumkin.⁴

Biroq, Vereshchaginni CHor Rossiyasining qo'shini safida turib, qo'liga qurol olib, qilgan vahshiyliklarini inobatga oladigan bo'lsak, uning o'zini bosqinchi, josus, ijodini esa O'zbekistonni dunyo xalqlariga yomon ko'rsatish maqsadi hamda CHor Rossiyasining bosqinchilik siyosatini oqlash uchun ishlangan tasvirlar deb qarashimiz mumkin. SHuning uchun ham ushbu rassomni mahoratidan qat'iy nazar yaratgan asarlarini aksariyatini uydirma sifatida o'rganishni tavsiya qilmaymiz.

O'rta Osiyoning serquyosh tabiati, me'morlik obidalari, xalqlarining turmush tarzi va xatti-harakatini rassom D. V. Velejev (1841-1897) ham o'ziga xos bo'lgan grafik asarlarida aks ettirdi. Ekspeditsiya bilan kelgan bu rassom tomonidan ishlangan rasmlar asosan kitob illyustratsiyasi uchun xizmat qilgan. Rassomning qator rangtasvir asarlari, grafik tasvirlari Toshkentga bag'ishlangan bo'lib, ularda shahar ko'chalari, hovlilar, machit va madrasalar, qo'rg'onlar

⁴ Саматова У. БМИ. 2014 йил. 10-бет.

bevosita naturaning o'zidan ishlangan. Bunga uning "Beklar begi madrasasi", "Baland machit", "Eski shahar ko'chasi", "Eski Toshkent ko'chasi", "Eski Toshkentdagi hovli" va boshqalar asarlarini misol qilib keltirish mumkin, bularning hammasi rassomning XIX asrni 60 yillarida ishlangan asarlari hisoblanadi.

O'zbekistonga kelgan yozuvchi, rassom, sayyoh N.N.Karazin (1842-1908) ham sermahsul ijod qilgan rassomlardan yana biri hisoblanadi. 1868 yili Xiva xonligiga qilgan safari paytida rus qo'shinlarining yurishiga bag'ishlab, qalamchizgilar ishlab, ocherklar yozadi va ularga bag'ishlab illyustratsiyalar ishlaydi. 1874 yilda Amudaryo ekspeditsiyasida bo'lib, Termezdan Orolgacha bo'lgan safar taassurotlariga bag'ishlab asarlar ishlaydi. Amudaryo sohili manzaralariga bag'ishlab akvarel bo'yog'ida yordamida 34 ta turkum asar yaratadi. "Amudaryodagi qayiqcha" shunday asarlari jumlasiga kiradi. Bundan tashqari, rus bosqiniga bag'ishlab rassom moybo'yoqda bir qator yirik polotnolar ham ishlaydi. YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ushbu rassom ham o'z bilimini Rossiyaning bosqinchilik siyosatini tasvirlashga qaratgan.

O'rta Osiyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga bag'ishlab "Sahroni o'zlashtirish", "Sahroni o'zlashtirgandan keyin", "Poezd bilan musobaqa" kabi asarlarini ishlaydi. Rus bosqinchilarining "jangovor" yurishlariga bag'ishlangan asarlarini esa moybo'yoq yordamida ishlaydi. O'lka tabiati, o'ziga xos me'morchiligiga atalgan turkum gravyuralari ham bor.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu rassom ijodining katta qismini CHor Rossiyasining O'rta Osiyoga bostirib kirishini madx etuvchi asarlar tashkil qiladi.

XX asr boshlariga kelib O'zbekistonga Rossiyadan kelgan rassomlarning safi yanada ortdi va ular orasida N.Kuznetsov, K.S.Petrov-Vodkin, A.V.Isupov, S.YUdin, I.Kazakov kabi ko'plab rassomlar bo'lgan. Bu vaqtda badiiy hayot markazi guberniya poytaxti hisoblangan Toshkent shahri edi. Bu erda yashagan rassomlar Rossiyaning Peterburg va Moskva shaharlari siyosiy va madaniy hayotidagi yangiliklarni o'z ijodlarida tadbiq etishga harakat qilishi natijasida rang-barang oqim va yo'nalishlar paydo bo'lgan. SHu tufayli milliy, demokratik

san'at an'alariga sodiq san'atkorlar bilan g'arb usullari asosida ijod qilish ishtiyoqidagi ijodkorlar o'rtasida o'zaro musobaqa avj oladi. Ko'rgazmalar uyushtiriladi, rassomlik to'garaklari tashkil etiladi, dastlabki muzeylar ham ochiladi. Albatta, bu davrdagi O'rta Osiyodagi badiiy hayot milliylikdan juda ham yiroq bo'lib, rus madaniyatining ajralmas bir qismi sifatida mavjud bo'lgan.

Evropa san'ati ta'sirida an'anaviy xalq amaliy san'atining mumtoz merosi bilan birga, yangi san'at va madaniyat turlari rivojlandi. XIX asr oxirlariga kelib shu erda tug'ilib, voyaga etganlar ham rassom sifatida san'at maydonida ko'rina boshladilar. Jumladan, farg'onalik rassom Aleksandr Nikolaevich Volkov va Petr Maksimovich Nikiforov samarqandlik rassom Lev Leonardovich Bure va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Mahalliy rassomlar ichida buxorolik Ahmad Donish, qo'qonlik musavvir Xoji Nosir Muhammad SHokirboylarni e'tirof etish lozim. Ayniqsa, yozuvchi, shoir, rassom, hattot sifatida tanilgan Ahmad Donish (1827-1887) ijodini alohida qayd etish zarur. U Rossiyaning bir qancha shaharlarida bo'lib, yangicha hayotni ko'rди va o'z qarashlariga ega bo'ldi. Uning bu qarashlari ilmiy risolalarida, mo'jaz rasmlarida o'z ifodasini topdi. Ahmad Donishning mo'jaz rasmlarida voqelikni o'ziga aynan o'xshatishga intilish yaqinligi uzoqdagi buyumlarning kichik tasvirlanishida bilinadi. Donish Evropa san'atini qiziqib o'rgangan rassomlardan hisoblanadi. Uning "Majnun sahroda", "Rassom va shoir" kabi qator miniatyuralarida Evropa realistik san'ati an'alari ta'siri sezildi. Qo'qonlik SHokirboyning miniatyuralarini ushbu san'atning tushkunlik davri namunasi sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

O'zbekiston san'at tarixini biz o'rganyotgan ushbu davrida uning katta qismi CHor Rossiyasi mustamlakasi bo'lganligi uchun ham juda ko'pchilik boylik, yangi serhosil erlar, arzon ishchi kuchi deb kelganligi aniq va ravshan ko'zga tashlanadi. Ammo, bundan ba'zi rassomlar mustasno. CHunki, Vereshagin, Velejev kabi ayrim rassomlarni inobatga olmaganda boshqa san'at ahli serquyosh o'lka, yangi tabiat, go'zal va xushmanzara bog'lar, tog'lar va soylar, qadimiy

obodalar, urf-odatlar, san'at va madaniyat, mehmondo'st xalqlar haqida eshitib, ularni o'z asarlarida tasvirlash orzusi bilan kelishadi.

1917-yil Rossiya fevral-burjia inqilobi va nihoyat, 1917-yili sodir bo'lgan oktyabr to'ntarishi bilvosita tasviriy san'at xarakteriga xam ta'sir ko'rsatdi.

San'at esa sinfiy xarakterga ega bir vosita sifatida qaraldi. Sotsialistik realizm metodining yaratilish Gorkiy nomi bilan bog'liq bo'lib, u yigirmanchi asr boshlarida, Rossiyada proletariatning ijtimoiy kuchiga aylanib, kapitalizm va samoderjaviyega qarshi kurashuvchi kuch sifatida vujudga keladi.

“Sotsialistik realizm metodining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati Sobiq Ittifoq yozuvchilari soyuzi (uyushmasi)ning 1934 yilda bo'lib o'tgan Birinchi s'ezdida qabul qilingan ustavi (nizomi)da bayon etilgan va qaror topgan. Sotsialistik realizm metodini ta'riflab beradigan uch asosiy jihati ko'rsatiladi.

1. Voqelikni haqqoniy, tarixiy konkret aks ettirish;
2. Voqelikni revolyusion taraqqiyotida ko'rsatish;
3. Badiiy tasvirlashni mehnatkashlarning sotsealizm ruxida tarbiyalash bilan bog'liq holda olib borish.

Bu uchchala vazifa bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bir butun holda sotsialistik realizm metodini xarakterlab beradi.”⁵

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir rassom ma'lum bir sinf tomonida turib, uni manfaatlarini qat'iy himoya qilishi shart bo'lgan. SHundan kelib chiqqan holda Sobiq Ittifoq rassomlari “lenincha partiya siyosati”ni targ'ib qilishi va uni o'z asarlarida aks ettirishi talab qilingan.

SHunday og'ir sharoitda ham buyuk o'tmishga ega bo'lgan, ko'plab bosqin va qirg'inliklarni boshidan o'tkazgan xalq o'z dini, milliy marosimi, udum va urf-odatlarini, san'at va madaniyatini saqlab qolishga harakat qildi. Ilg'or ziyolilar yashirincha milliy ozodlik harakati, istiqlool g'oyalari orzusida xalqning farovonligini oshirish, ularning ma'rifatli bo'lishi, ijtimoiy hayotda faol bo'lishlari uchun tinmay mehnat qildilar. Ta'qib va to'siqlarga qaramay, O'zbekiston ijtimoiy va madaniy hayotida sezilarli siljishlar sodir bo'ldi.

⁵ О. К. Апухтин. Тасвирий санъат асослари. Т.; 1967. 24-бет.

Bu yillarda fan, madaniyat va san'at sohasida ham o'zgarishlar yuz berdi. Ziyolilar safi kengaydi, ularning qatoriga birinchi bor mahalliy ziyolilarning katta guruhi kelib qo'shildi. Ular san'at orqali ijtimoiy masalalarni ko'tarib chiqishga, sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni realistik san'at tilida tasvirlashga intildilar. San'atning tur va janrlari kengaydi, yangilari paydo bo'ldi. Bu o'z navbatida xalqning o'z-o'zini anglash tuyg'usini kuchaytirib, milliy g'urur tuyg'ularini rivojlantirib, istiqlol g'oyalarining yaqinlashishi va ro'yobga chiqarish orzusini kuchaytirib bordi. Albatta, bu rivoj o'z-o'zidan bo'lmadi, u katta qurbonlar evaziga amalga oshdi.

Sovet davlatining yagona mafkurasi - kommunistik mafkurani xalq ongiga singdirish, sovet davlatini mustahkamlash borasidagi etakchi yo'nalish tizimidagi harakat milliy istiqlol g'oyalariga sekinlik bilan yo'l ochib bordi. Bu rivojlanish san'at va madaniyat borasida, ayniqsa, san'atning g'oyaviy plastik o'zgarishlarida o'zini namoyon etdi.

Oktyabr to'ntarishidan keyin O'rta Osiyoda dastlab Turkiston muxtoriyati (poytaxti Toshkent), Buxoro Xalq Respublikasi (poytaxti Buxoro) va Xorazm Xalq Respublikasi (poytaxti Xiva) tashkil etilgan edi.

Yangi tashkil topgan sho'rolar davlatining mustahkamlanishi va sobiq rus imperiyasi o'rnida qator respublikalarning paydo bo'lishi, ularning hududiy chegaralarining belgilanishi davrida mamlakatda demokratik ruhiyat, so'z va vijdon erkinligining ma'lum miqdorda mavjudligi, to'liq siqib chiqarilmaganligi bilan xarakterlanadi va eng muhimi, xalqning kelajakka zo'r ishonchi va e'tiqodining kuchliligi bilan ajralib turadi. Tasviriy san'at esa o'zining boy uslubiy rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda san'at va madaniyat fidoyilari tashabbusi va sa'yi-harakati tufayli ma'rifiy-madaniy ishlar qizib ketdi, badiiy maktablar va tasviriy san'at studiyalari tashkil etildi.

Bu studiyalarda dastlab milliy yoshlar va chetdan kelib O'zbekistonda o'troqlashgan rus va boshqa millat vakillarining farzandlari ta'lim oldilar. O'zbek san'atida o'z nomlarini qoldirgan Akrom Siddiqiy, Iskandar Ikromov, O'rol Tansiqboev, Bahrom Hamdamiy, Akrom Toshkenboev, Nikolay Karaxan, Grigoriy

Nikitin, Varsham Eremyan, Muhiddin Rahimov, Hamidulla Ikromov va shu kabi boshqa ko‘plab rassomlar bo‘lishdi. Bu studiya va maktablar zaminida asta-sekin o‘lka badiiy maktablari shakllana bordi.

1918 yili tashkil etilgan badiiy studiya asosida hunar-mehnat maktabi o‘rnida keyinchalik Samarqand rassomlik maktabi tashkil etildi. 1919 yili Toshkentda Turkiston o‘lka rassomlik maktabi ochildi. Bulardan tashqari, Toshkentda tasviriy san‘at studiyalari va to‘garaklari tashkil topdi. Yangi hayot yoshlarning yangi bilimlarga qiziqishini orttirib yubordi. Ko‘plab yoshlar badiiy studiya va maktablarga kela boshladilar.

Bu yillarda ko‘rgazmalar tashkil etish ishlari ham qizib ketdi. Ularda taniqli rassomlarning asarlari bilan birga badiiy maktab va studiyalarda ta‘lim olayotgan yoshlarning ishlari ham namoyish etildi. Masalan, 1919 yili tashkil etilgan ko‘rgazmada Akrom Siddiqiy, Ro‘ziboevlar chizgan rasmlari bilan ishtirok etib, birinchi bor milliy san‘at ko‘rgazmalarining dastgohli rangtasvir yo‘nalishidagi asarlarini namoyish qildilar. Har bir ko‘rgazma va muzey eksponati mahalliy tilda tomoshabinlarga tushuntirildi.

Bu davr tasviriy san‘atining ikki yo‘nalishi - birinchidan, ijodkorlarning san‘atga fidoyilik bilan unda izlanishlar olib borishlari, jahon madaniyati va san‘atidagi yangiliklarni tashnalik bilan kuzatib, shu tajribalarini o‘z ijodlariga tatbiq etishga harakat qilishlari bo‘lsa, ikkinchi tomondan, esa hayotga kirib kelayotgan va kun sayin mustahkamlanib borayotgan sovet mafkurasi hamda uning shart-sharoitlari edi. Ana shu har ikki yo‘nalish keyingi yillar san‘ati va madaniyati rivojlanishining xususiyatlarini belgiladi.

XX asr boshlarga kelib O‘zbekiston san‘atida jahon san‘atining barcha sohalarida sodir bo‘layotgan deyarli hamma jarayon va izlanishlar tajribadan o‘tdi. Evropa mumtoz san‘ati, Italiya, Germaniya, Finlandiya, Fransiya va albatta, birinchi galda Rus san‘atidagi mavjud yangi uslub va yo‘nalishlar, Amerika qit‘asi, jumladan, Lotin Amerikasi badiiy hayotida bo‘layotgan jarayonlar shu davr o‘zbek san‘atida o‘z ifodasini topdi. Shular ta‘sirida yangi, milliy san‘atning o‘ziga xos tomoni shakllana bordi.

Bu jarayonda demokratik badiiy maktab vakillarining roli, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi rus san'ati jarayonlari va uning yirik vakillari ijodiy uslublari ham muhim o'rinni egalladi. Xalq milliy ozodlik harakati shohidi bo'lgan, o'sib borayotgan milliy ong va o'z-o'zini anglash tuyg'ularini ko'rgan rassomlar masalaning bu tomonini ham o'z ijodiy faoliyatlarida hisobga olmasliklari mumkin emas edi. Natijada, agar yangi asrning boshlarida sharq va g'arb san'ati uchrashuvi jarayonining yangi bosqichi kurtak otib, o'ziga yo'l ochib boshlagan bo'lsa, 20 yillarda bu jarayon ijtimoiy muhit bilan jahon ma'naviy olamining o'zgarishi va rivojlanib borishi bilan uzviy holda rivojlanishda bo'ldi.

1.2. XX asr 30-yillari O‘zbekiston tasviriy san’atida portret janri.

O‘zbekistonning XX asrning 20 yillari oxiri va 30 yillari boshidagi san’at taraqqiyoti bir maromda tekis kurtak otayotgan jarayon emas edi.⁶ Xalq turmush tarzi aks ettirishga bag‘ishlangan asarlarni P. Benkov, Z. Kovalevskaya, O. Tetovosyan, M. Arinin, N. Kashina, V. Ufimsev kabi rassomlar ijodida ko‘rinadi. Qishloq kishisining umumlashgan obrazi aks ettirilgan dastlabki portretlar paydo bo‘la boshladi.

1928 yili birinchi marta O‘zbekistonga kelgan Pavel Benkovni o‘lkaning serquyosh tabiati, shakllarga boy me’moriy obidalari, odamlarning sharqona turmush tarzi maftun qiladi. “O‘zbekistonga kelishim,- deb yozadi P. P. Benkov, - meni ijodiy ishlarimning yuqori bosqichi,- deb hisoblash mumkin. O‘zbekistonning janubiy poytaxti, u erdagi rang-barang turmush tarzi meni ijodiy faoliyatimga katta turtki bo‘ldi. SHu erda, O‘zbekistonda men birmuncha murakkab kompozitsiyalarga o‘tishni boshladim.”⁷

Rassom O‘zbekistonga butunlay ko‘chib kelguniga qadar avval Buxoro, Xiva va Samarqand shaharlarida ham bir necha spektakllarni bezovchi rassom sifatida faoliyat ko‘rsatadi. U bu joylarda ham sahna bezagiga mos juda ko‘p narsalarni ko‘radi. Janubning musaffo osmoni, ko‘zni qamashtiradigan yorqin quyoshi ostidagi qadimiy obidalar qurshovidagi xalqning hayoti uni o‘ziga maftun qilgan edi. U o‘zining ko‘plab etyudlarida ulkan me’morlik obidalari intererida odamlarni tasvirlaydi. Bu tasvirlarni yana o‘ziga xos bir jihati shunda ediki, ularda tasvirlangan odamlar turfa xil, rang-barang kiyimlarda aks ettirilgan. Rassom asosiy e’tiborini shu jihatlarga qaratadi va ularni haqiqiy kattaligida tasvirlashga harakat qiladi.

Rassom faoliyatini yaqindan o‘rgangan san’atshunos-olim L. M. Nikifarov olib borgan tadqiqotlariga asosan quyidagilarni bayon qiladi: “Haqiqatdan ham P. Benkov O‘zbekistonga kelganidan keyin juda ham faol ish boshlaydi. Ayniqsa, uni

⁶ Ўзбекистон тасвирий санъати. Альбом-каталог. Тузувчилар: М. Мюнц, Д. Фахретдинова. Т.; 1976.5-бет.

⁷ Абдували Эгамбердиев. Жанровая живопись Узбекистана. Т.; 1989. 48-бет.

O'zbekistonda birinchi marotaba bo'lgan yillari, ya'ni 1929-1932 yillar samarali bo'lgan. Bu davrda rassom ko'plab asarlar yaratdi, ulari ichida ulkan hajmdagilari ham ko'p edi"⁸- deb yozadi.

Bundan xulosa qilib, "O'zbekistonning serquyosh tabiati, odamlarning samimiyligi, mehmondo'stligi, san'at va madaniyatini, urf-odatlarining o'ziga xosligidan ilhomlangan rassom ulkan o'lchamdagi, katta asarlar yaratishni boshlab yuboradi va borliqdan, tabiatni o'zidan katta hajmdagi asarlarni yaratishga kirishib ketadi"- deb aytish mumkin. Rassomni Rossiyada ishlagan asarlari bilan O'zbekistonda yaratgan asarlarini taqqoslaydigan bo'lsak, haqiqatdan ham Benkovni etuk rassom bo'lib tanilishi asosan O'zbekistondagi ijodiga bog'liq.

1929 yili esa P.Benkov O'zbekistonga butunlay ko'chib keladi va umrining oxiriga qadar, ya'ni 1949 yilgacha Samarqandda doimiy ravishda yashaydi va ijod qiladi. SHu erda tashkil qilingan Rassomlik bilim yurtida murabbiylik qilib, juda ko'plab maxalliy yoshlarga tasviriy san'at sirlarin o'rgatadi va o'zbek rassomlarining ulkan avlodini tayyorlashga erishishga o'zining katta hissasini qo'shadi. P.Benkov qo'lida taxsil olgan O'zbekiston xalq rassomi Lutfilla Abdullaev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdulhaq Abdullaev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, akademik Raxim Axmedov, birinchi o'zbek ayol-rassomi SHamsiroy Xasanova, minatyura san'atini mahobatli rangtasvir darajasiga olib chiqqan O'zbekiston xalq rassomi CHingiz Axmarov, O'zbekiston xalq rassomi Najim Kaziev va shular kabi qator ustoz rassomlarimizning nomlaridan ham uning o'zbek rangtasvir san'atiga qo'shgan ulushining salmog'ini qanchalik ulkanligini ko'rishimiz mumkin. Portret, manzara va tarixiy janrlarda bebaho asarlar yaratib, o'zbek rangtasvir san'ati ravnaqida o'zining o'chmas izini qoldiradi.

Rassomning "Keksa kolxozchi", "Dutorchi qiz", "Qaxramonning onasi" kabi portretlari inson qiyofasini va uning ichki dunyosini ochib bergan sara asarlar namunasi deyish mumkin. Rassomning engil-musiqiy uslubi, asar

⁸ Л. М. Никифаров. П. Беньков. М.; 1967. 30-бет.

koloritini nozik ifodasi odam qalb haroratini va uning yoqimli chehrasini o‘zida aks ettiradi.

“YO’dosh Oxunboboev” portretida esa O‘zbekistonning birinchi prezidentini tashqi qiyofasi haqqoniy va to‘laqonli tasvirlangan. Davlat arbobining qarashlaridan uni qat’iy irodasini xis qilishimiz mumkin. SHu bilan birgalikda esa portret naturalistik ko‘rinishdan holi emasligin ta’kidlash lozim.

Bu davrda yaratilgan portretlarga yana quyidagi asarlarni ham misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Usto Mo‘min (Aleksandr Nikolaev)ning “CHoyxonachi” (1928), Lutfulla Abdullaevning “Xalq xofizi To‘ychi Toshmuxammedov” (1938,) Baxrom Xamdamiyning “Avtoportret” (1939), Mixail Arinning “Tog‘lik O‘zbekiston qizi” (1942), Nadejda Kashinaning “Doirachi qizi” (1945), SHamsiroy Xasanovanning “Qashqar shoirasi Mutriba portreti” (1947), Malik Nabievning “Abu Rayxon Beruniy portreti” (1949) kabi asarlar. CHunki, bu asarlarning har biri o‘zining badiiy tiliga, ifoda vositasiga ega bo‘lgan asarlar bo‘lib, O‘zbekiston dastgohli ragtasvir san’atida portret janrini tutgan o‘rnini baholashda asosiy o‘rinni egallaydigan asarlar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston respublika sifatida rasmiy mustaqillikka ega bo‘lib, o‘zining xududi, davlat chegaralarini belgilab olgan bo‘lsa ham, aslida yagona boshqaruv tizimiga qaram bo‘lgan, qizil imperiya tarkibidagi bir o‘lka edi, xolos. Sotsialistik respublikalarning qay yo’sinda rivojlanishi, nimalarni o‘qish va nimani o‘qimasligi, kim va qaysi xorijiy davlat bilan aloqa qilish va qilmasligi va shu kabi boshqa barcha narsalar imperiya markazi bo‘lgan Moskvadan belgilab berilar edi. SHuning uchun ham markazdagi siyosiy va iqtisodiy, madaniy jarayonlar namuna maktabini o‘tar va o‘z ta’sirini barcha respublikalarga majburiy tarzda o‘tkazar edi. San’at va madaniyatda bunday yagona mafkura “qizil saltanat” tarkibidagi hamma milatlar, xalqlar va elatlar san’ati, madaniyatida shakllana boshlagan yangicha urf-odatlarida yaqinlik va o‘xshashliklar keltirib chiqardi. SHunday o‘ta og‘ir bir tarixiy davrda yangi o‘zbek rangtasvir san’ati shakllandi.

Bu yillar davomida o‘zbek san’atining rivoji murakkab va ziddiyatli tarzda kechdi. Bir tomondan, milliy san’at davr mafkurasiga ko‘ra dastlabki taz’iqqa

uchragan bo'lsa, ikkinchi tomondan mahalliy rassomlarning keng ko'lamda san'at maydoniga kirib kelishi davri bo'ldi. Moybo'yoq texnikasida realistik uchlubda badiiy asarlar yaratila boshlandi, kundalik turmush yangiliklari qalamga olindi, maishiy janr va portret janrlari rivojlandi.

SHu yillar davomida rassomlar birinchi bor avtoportret sohasida qalam tebrata bordilar. Kino va teatr dekoratsiyasi (sahna bezagi) paydo bo'ldi. Bu ishlar ayniqsa, Toshkent shahrida juda ham sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur davrda birinchi bor milliy san'atda o'ziga xos badiiy uslub yaratish harakati yuzaga keldi. Rassom va haykaltaroshlar shu maqsadda o'tmish san'ati an'alarini o'rgana boshladilar. Ayniqsa, buyuk Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirlarga tayyorgarlik yillarida shu izlanishlar jonlanib ketdi. Milliy an'ana va uslublardan foydalangan holda zamonaviy san'atni yaratishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bu esa tasviriy san'atning plastik tomonini belgilovchi muhim omil bo'lib xizmat qildi.

SHu davrda o'zbek rassomlarining asarlari nafaqat respublikamizning shahar va qishloqlarida, balki o'zga mamlakatlar ko'rgazma zallarida ham namoyish etila boshlandi. Mahalliy yoshlar Moskva, Peterburg va boshqa shaharlarda ijodiy safarda bo'ldilar, ularning ishlagan badiiy asarlari Moskva SHarq xalqlari muzeyi, Tretyakov galereyalari uchun olindi. So'zsiz, bu tadbirlar bo'lajak rassomlar dunyoqarashining shakllanishiga va san'at sirlarini chuqur o'zlashtirishlari uchun muhim omil edi. Afsuski, bu tadbirlar asta-sekin chegaralanib, xorijiy davlatlar bilan bo'lgan ijodiy aloqalar, ko'rgazma va konkurs'larni o'tkazilishi ta'qiqlab qo'yildi. CHet el ko'rgazmalariga chiqish yoki chet el san'ati ko'rgazmalarini sovet davlati shaharlarida, respublikalarda tashkil etish ta'qib ostiga olindi. 20-yillarning o'rtalaridan boshlangan bu hol 50-yillarning o'rtalarigacha davom etdi. «Sof sovet san'ati» davri boshlandi.

1.3. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr portret janri rivoji.

Ikkinchi jahon urushi yillari o'zbek rassomlari uchun katta sinov bo'ldi. Ular g'oyaviy jihatdan chiniqdilar. Ular front g'alabasi uchun rag'batlantira oladigan asarlar yaratishga harakat qildilar. Urush yillarida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan Moskva, Leningrad, Kiev, Xarkov badiiy institutlari, ular bilan birga kelgan etuk san'atkorlar - D.Moor, V.Favorskiy va boshqalar respublika badiiy hayotini jonlantirishga ko'maklashdilar. Urush tugagach, tinchlik yillari o'zbek san'ati ham o'z rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Inson go'zalligi, tabiat ulug'vorligi rassomlarimiz polotnosida o'z ifodasini topa boshladi. Bu urushdan keyingi yillarda yaratilgan A.Abdullaevning A.O'idoyatov portreti, T.Oybek, L.Abdullaevning "Qahramonni kutib olish", O'.Tansiqboevning "Qayroqqum GESida tong", R.Ahmedovning "Onalik o'ylari", R.Timurovning "Samarqand", YU.Elizarovning "O'zbekiston san'atkorlar guruhi portreti", N.Karaxonning "Oltin kuz", V.Fadeevning "Soqchi ayol", M.Saidovning "Xirmonda", CH.Ahmarovning devoriy rasmlari va boshqalar o'zbek san'ati tarixida o'zlarining munosib o'rnini egallaydi. Respublikamiz rassomlari bu davrdan boshlab, barcha ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligini ortib borayotganini namoyish ettilar. Bizning rassomlar ko'plab ko'rgazmalarda qatnashdilar. 60-70 yildan boshlab, o'zbek san'ati yangi pog'onaga qadam qo'ydi. Bu davrda faqat keksa rassomlar ijodidagina emas, balki yoshlar ijodida ham yangi ifoda vositalarini izlash, asarlarini talqin etishda uning emotsional tomoniga e'tibor berish kuchayganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Buni B.Boboev va R.CHorievlarning kartinalarida, T.Muhammedovning karikaturalarida, F.Grishchenkoning, X.Xusniddin ho'jaevning haykallarida ko'rish mumkin. O'zbek san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi.

XX asrning ikkinchi yarmi O'zbekiston san'atiga Sobiq Ittifoqdagi barcha respublikalar qatorida bevosita II Jahon urushi bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalar asos solgan deyish mumkin. CHunki, bu davrda urush davri va urushdan keyingi xalq turmush tarzini san'at asarlarida tarannum etish har bir san'atkorning

zaruriy burchi deb qaralgan. Ushbu jarayon o'zbek rassomlari ijodida ham o'z aksini topdi.

Front safaridan qaytgan Urol Tansiqboev ijodiga mansub “Urush izidan” rangtasvir asarlari turkumi jangu-jadal voqealariga to'la bo'lgan, og'ir yillar haqidagi xotira bo'lib qoldi. Lutfulla Abdullaevning mehnat va urush qatnashchilariga bag'ishlab ishlagan ko'plab portretlari, CHingiz Axmarovning “Sovg'a yig'ish” polotnosi, Vladimir Ufimsevning jangnoma polotnolari va harbiy natyurmortlari, Zinaida Kovalevskaya, Pavel Benkov, Nadejda Kashina, O. Tetovasyan va shu kabi boshqa ko'plab rassomlarning hakm jang manzaralarini ifodalovchi asarlari ham shunday asarlar jumlasiga kiradi.

“O'zbekiston rassomlari Ulug' Vatan urushida” esdaliklari albomida O'zbekiston xalqining front ortidagi og'ir va fidokorona mehnati, o'zbek o'g'lonlarining jang maydonidagi jasoratlari aks ettirilgan.

O'zbekiston o'sha yillarda Rossiyaning Moskva, Leningrad (Sankt-Peterburg) kabi shaharlaridan hamda Ukraina, Belorussiya respublikalarining ko'plab ko'zga ko'ringan, yirik rassomlari boshpana va madad topgan mehmondo'st o'lkaga aylandi. Ayni damda barcha mo'yqalam sohiblarini ijod qilishlari uchun etarli shart-sharoitni ham O'zbekiston xalqi yaratib berdi. Jumladan, Samarqand shahrida Leningrad rassomchilik Akademiyasi o'z ishini davom ettirdi.

Bundan O'zbekiston urush davridan boshlab Sobiq Ittifoqning ijodiy markaziga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'plab rassomlarning urushdan keyingi yillardagi ijodlarida og'ir sinovlarda g'alabaga erishgan inson obrazini, uni xarakteridagi tipik fazilatlarini ochishda umumlashgan ko'rinishlar paydo bo'ldi.

Lutfulla Abdullaevning “Askarning qaytishi”, Vladimir Kaydalovning “Saxalin yo'nalishida”, Pavel Benkovning “Yana Vatanda”, Vladimir Ufimsevning “Partizancha” va shu kabi boshqa ko'plab asarlar xuddi shu ruxda yaratilgan.⁹

⁹ Ўзбекистон тасвирий санъати. Альбом-каталог. Тузувчилар: М. Мюнц, Д. Фахретдинова. Т.; 1976.8-бет.

XX asrning ikkinchi yari O'zbekiston tasviriy san'atiga Leningrad (hozirda Sankt-Peterburg shahri) rassomchilik Akademiyasini tamomlagan Raxim Axmedov, Mannon Saidov, Tetovas Oganegov, Ne'mat Qo'ziboev, Ro'zi CHoriev, Valeriy Zelikov, Moskva san'at oliy o'quv yurtlarini bitirgan YUriy Elizarov, Vladimir Jmakin, Vladimir Sosedov, Eduar Kalantarov, Narimon Raximboev va shu kabi boshqa ko'plab mahalliy rassomlar kirib kelishdi. Toshkentda Nikolay Oatrovskiy nomidagi Teatr va rassomchilik instituti ochilganidan keyin esa ularning soni yanada keskin ortib bordi.

Tasviriy san'atda barcha tur va janrlarning mavzu doirasi birmuncha kengaydi, mazmunan teranlashdi. Biroq, rassomlarning aksariyati asosan naturalistik va realistik xarakterdagi badiiy asarlar ishlash chegarasidan chetga chiqolmadi. CHiqqan rassomlarining asarlari esa "sotsrealizm" g'oyalariga zid asarlar deb qaraldi, ko'rgazmalarga yaqinlashtirilmadi, mualliflar esa qattiq tanqid ostiga olindi.

Bu davrda Lenin obraziga murojaat qilmagan rassom qolmagan desak mubolag'a bo'lmas kerak. CHunki, Sobiq Ittifoqning asoschisi, "dahosi" bo'lgan Leninning nomini har bir viloyat, tuman, qishloq, maxallalarga qo'yilgan va uni lohiylashgan obrazini tasvirlash hamma rassomlar uchun deyarli majburiy hisoblangan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Lenin tasvirlangan asarlar ilohiylashtirilgan va ularga boshqa asarlarga nisbatan ancha katta haq to'langan. Rassomlar o'z asarlarida "revolyusiya dahosi"ning ko'p qirrali hayotini, mislsiz omilkorligini, dohiyona xislatlarini ko'rsatishga intilganlar. Har bir o'quv tarbiya muassasasi, zavod, fabrikalarda Leninni haykali va unga oid rassom asar bo'lishi shart bo'lgan. Hattoki, paxta dalalari, shiyponlarda ham leninga bag'ishlangan rasm qo'yilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Volodya Ulyanov nomli oktyabryatlar safiga, yuqori sinf o'quvchilarini esa Lenincha komsomollar safiga, ishchilaru ziyolilarni komunistik partiya safiga qabul qilish marosimlari nafaqat gazeta, jurnal, televideniyada, balki rassomlarni asarlarida ham o'z aksini topishi qattiq nazorat ostiga olingan. Bunday asarlar ko'plab yaratilgan bo'lib, biz tadqiqot

ishimizda ulardan ayrimlarinigina keltirish bilan kifoyalandik. Chunki, bunday tasvirlarda rassomning o'ziga xos ifoda vositasi, erki, ijodiy uslubi bo'lmagan. Asarning badiiy qimmatini haqida so'z yurtimasa ham bo'ladi. Jumladan, Vladimir Burmakinning "Tashvishli yillar", Vladimir Ufimsevning "Lenin Sibir surgunida" va shu kabi boshqa asarlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Rassomlar ijodida xalq o'tmishi aslidan ko'ra boshqacha tarzda, ya'ni zamonga mos ravishda, partiya siyosati talab qilgan darajada yangicha talqin etildi. Inqilob va fuqarolar urushi mavzulari ko'klarga ko'tarib, olqishlandi. Bularga Vladimir Ufimsevning "Bolshevikning tug'ilishi", "Hamza", Ro'zi Chorievning "Amirlikning emirilishi", Vladimir Jmakinning "Paranji kuydirish", "Hamza frontda", G'ani Abduraxmonovning "Yangi xo'jayin", Mannon Saidovning "20 chi yillar", Nadejda Kashinaning "Bolalar yangi hayotga qadam bosyaptilar", Baxtiyor Boboevning "Temir yo'l bekatida" kabi juda ko'plab asarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Paxta yakka hukmronligi, terimchilarga qo'yiladigan majburiy norma, undan yuqori hosil olishda kattadan-kichikkacha tinmay mehnat qilgan o'zbek xalqi mehnatini olqishlash davr siyosatiga aylandi. Bu jarayon rassomlarni ham chetlab o'tmadi, ular ham paxtakorlar obraziga murojaat qildilar. Buning uchun rassomlar viloyat partiya qo'mitasining buyrug'i bilan turli kolxoz va sovxozlarga xizmat safariga majburiy tarzda yuborilgan, u erdagi "ilg'or paxtakor"ning buyutma portretini ishlagan.

Mazmunan deyarli bir xil, badiiy ifodalash jihatidan ham juda yaqin bo'lgan Baxtiyor Boboevning "Farg'ona syuitasi", Vladimir Burmakinning "Paxta terimi", Raxim Axmedovning "Hosilot", "Mehnatda ham soldat", Lutfulla Abdullaevning "Cho'l o'zlashtiruvchilar", Mannon Saidovning "Normani bajara olmadi" va shu kabi ko'plab boshqa asarlar ana shunday asarlar jumlasidan hisoblanadi.

Rangtasvirning barcha sohalarida bo'lgani kabi portret janrida ham rassomlar zamondoshlarining yaratuvchanlik mehnati mavzusiga ko'proq murojaat qildilar. Buning uchun rassomlar mehnat mavzusi ko'lamini kengaytiruvchi, ijodkor-yaratuvchi insonni ulug'laydigan asrlar yaratishga qattiq kirishdilar. Portret

janri psixologik va badiiy jihatdan birmuncha boyidi. Naturadan ishlangan etyudnamo xarakterga ega bo'lgan portretlar va naturalistik uslubdagi portretlar o'rini endilikda inson ruxiyatiga chuqur kirib borishga intilish bilan bir vaqtning o'zida yorqin individual va tipik obrazlarni yaratish egalladi.

Bunday asarlar sirasiga Abdulhaq Abdullaevning "Abror Xidoyatov Otello rovida", "YOzuvchi Oybek", "Akademik T. Qori Niyoziy", Raxim Axmedovning "Ona o'ylari", "Keksa kolxozchi portreti", "Aktyor Olim Xo'jaev portreti", "Rassom Qutlug' Basharov", Valeriy Fadeevning "Duradgor", "Keksa kolxozchi Zulun buva", Tetovas Oganegovning "YOzuvchi S. P. Borodin portreti", "Haykaltarosh Makarov", Yuriy Elizarovning "YOzuvchi Sadriddin Ayniy portreti", CHingiz Axmarovning "Temurov portreti" kabilarni kiritish mumkin.

Portretchi rassomlar ijodida buyuk bobolarimiz siymosiga murojaat qilish, ularning obrazlarini yaratish ham ma'lum ahamiyat kasb eta boshladi. SHu o'rinda Vladimir Kaydalovning "Alisher Navoiy", Malik Nabiev va Ro'zi CHorievlarning "Abu Rayhon Beruniy" portretlari hamda birinchi o'zbek rassom-ayoli SHamsiroy Xasanovning "Qashqar shoirasi Mutriba portreti" va boshqa shu kabi o'zbek xalqining buyuk allomalari, shoirlari obrazlarining yaratilganligini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Biroq, bu asarlarning barchasidagi obrazlarda norozilik, tushkunlik kayfiyati bordek tuyuladi. Ularning barchasida, qaysi rassom ishlashidan, kim tasvirlanishidan qat'iy nazar g'amgin, tashvishli yuz-ko'zlarni ko'ramiz. YUqorida nomlari keltirilgan asarlarni birortasida quvnoq kayfiyatni, shodon obrazni uchratmaymiz. CHunki, san'atni sinfiyligi, Sobiq Ittifoq Partiya siyosati rassomlar erkini chegaralab, rangtasvirni ham bir qolipdagi, mutloq majburiy san'atga aylantirib qo'ygan edi. Milliylikni o'z ijodida aks ettirgan rassom esa "millatchi" sanalgan va qattiq ta'ziq ostiga olingan. Tasviriy san'atda ham davrga mos ravishda, tom ma'noda turg'unlik davri hukmronlik qilar edi.

Bu davrdagi dastgohli rangtasvir san'ati ham grafika, plakat san'ati singari "targ'ibot rejasi" deb nomlanuvchi mafkura hukmronligi asosida shakllandi. Ana

shunday bir davrda, tasviriy san'atning siyosiylashtirilgan qobig'ida ishlash, ijod qilish hammadan ko'ra rassomlar uchun juda ham qiyin kechdi.

SHunga qaramasdan juda ko'plab portretchi rassomlar qadimiy udum va an'analarni o'zida mujassam etgan. Badiiy qiymati yuqori bo'lgan kompozitsiyalar ishladilar. Ulug' mutaffakirlar, olimlar, qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan asarlar yaratish boshlandi. Bu o'z-o'zidan bo'lmadi, buni zamirida xalqimizning mustaqillik haqidagi azaliy orzusi yotar edi.

Xulosa o'rnida bu davrga qiyosiy baho berar ekanmiz, 1950 yillarda CHingiz Axmarovning chiziqli rangtasviri va 1970 yillar boshlaridagi SHuxrat Abdirashidov, Alisher Mirzaev, R. SHodievlarning yorqin ranglar gammasida bajargan asarlari diqqatga sazovvor bo'lgan deyishimiz mumkin. A. Mirzaev va R. SHodievlarning asarlari – shaklning erkin o'yini, rang va nurning kutilmagan ko'rinishi, ba'zan esa ranglarning qarama-qarshi qorishlari, o'ta bezakdorlik, an'anaviy xalq san'atiga tayanganligi bilan ajralib turganligini ko'ramiz.

II-BOB. XX ASR OXIRI O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA PORTRET JANRI

2.1. Mustaqillik yillari O‘zbekiston tasviriy san’ati.

XX asrning oxirlariga kelib xalqimizning azaliy orzulari amalga oshdi, O‘zbekiston mustaqillikka erishdi. Mustaqillik Xalqimiz tarixida yangi sahifa ochdi. O‘zbekiston xalqaro huquqiy ob’ektga aylanib, 1992 yil BMTga, 1993 yili YUNESKOga a’zo bo‘ldi.

Buyuk vatandoshlarimiz – Imom Buxoriy, Xakim Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandiy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg‘inoniy kabilarning nomlari qayta tiklandi. O‘tmishning buyuk mutaffakirlari, shoir va musavvirlari – Abu Rayhon Buruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Axmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy hamda jadidchilik harakati vakillarining nomi g‘urur bilan tilga olindi. Ulug‘ Soxibqiron Amir Temurning tariximizda tutgan o‘rni va ahamiyatini ham nihoyat haqqoniy talqiniga erishdi.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, - deb yozadi Prezidentimiz I. A. Karimov – ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi. Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o‘zlikni anglashni o‘rishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.”¹⁰

O‘zbekistonda yangi ma’naviy – g‘oyaviy yo‘nalishlarning shakllanishi o‘z navbatida, zamonaviy san’atning barcha sohalariga samarali ta’sir etib. ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi.

¹⁰ И. Каримов. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Т.; “Ўзбекистон” 1997. 137-б.

Barcha shaharlarimizda ulkan qurilishlar amalga oshirildi, me'morchilik jadal rivojlandi.

Bu davrda devoriy, mahobatli rangtasvir, vitraj, mozaika me'morlik bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bordi. SHu davrda barpo etilgan yirik inshootlar mahobatli rangtasvir ustalarining faol ishtirokida bunyod bo'ldi. Jumladan, Toshkentdagi "Turkiston" saroyi, Biznes-sentr va Interkontinental mehmonxonasi, "Meridian" va "SHeraton" mehmonxonalari, "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", "Oliy majlis" binosi, Olimpiya sport saroyi, Samarqand va Buxoro shaharlaridagi "Afrosiyob", "Buxoro" mehmonxonalari hamda poytaxt va respublikamizning boshqa shaharlaridagi zamonaviy me'morlik inshootlari bunga misol yaqqol bo'la oladi.

Mazkur davrda san'atkor Boxodir Jalolov bir qator ahamiyatga molik asarlarni yaratdi. SHuningdek, yosh iste'dodli musavvir Alisher Aliqulov boshchiligidagi ijodiy gurux yaratgan tarixiy xarakterdagi mahobatli pannolar ham yuksak badiiyati va ijro mahorati bilan alohida ajralib turdi. Samarqandlik musavvirlar tomonidan ham turli inshootlar uchun qiziqarli devoriy tasvirlarning turkumi yaratildi. Xuddi shu davrda o'tmishda yashab o'tgan byuk allomalar, davlat va din arboblari, shoirlar va musavvirlar timsolini muhrlagan qator yodgorliklar qad ko'tardi.

Rassomlarning ijodiy salohiyati uzoq yillar mobaynida qattiq mafkuraviy nazorat ostida bo'lishiga qaramay, XX asrning oxirlariga kelib O'zbekistonda kuchli rangtasvir maktabi shakllandi, mustaqillik bergan ijod va rux erkinligi rassomlarning o'z-o'zini badiiy ifoda etishlari uchun yangi kuch-quvvat berdi.

XX asrning 90-yillar rangtasvir san'ati o'tish davriga xos bo'lgan turli-tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Bu ko'lamda akademik realizm, dekorativizm va milliy – romantizm (ko'p hollarda minatyura talqini ohanglarida), qiyofasiz rangtasvir, instalyasiya echimi tarzidagi avangardizm yonma-yon mavjud bo'ldi. Ko'p jihatdan ijodiy dunyoqarashning kengayishi va

teranlashuvi, mualliflarning qoliplar chegarasidan chiqishga intilishi bilan izohlanadi.¹¹

1997 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etilishi Respublika madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Uning faoliyati badiiy ta'lim, ko'rgazma ishlarini takomillashtirish va badiiy meros hamda zamonaviy san'atni targ'ib qilish istiqbolini ta'minlashga yo'naltirildi. Akademiklar orasida ustoz rassomlar – faxriy akademiklar Raxim Axmedov, Abdulhaq Abdullaev, Ne'mat Qo'ziboev, Mannon Saidov, Ro'zi CHoriev, Malik Nabievlar hamda Akademiyaning Haqiqiy a'zolari – Vladimir Burmakin, Akmal Ikromjonov, Tursunali Qo'ziev, Toxir Mirjalilov, Javlon Umarbekov, Jo'liboy Izintaev, Lekim Ibragimov, Baxtiyor Boboev, Yigitali Tursunnazarov, Samig' Abdullaev, Akmal Nur va boshqalar bor. Turli avlod rassomlaridan iborat akademiklar tarkibi ramziy ma'noda tasviriy san'atning XX asrda bosib o'tgan turli xil uslubiy yo'nalishlarini, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ifoda etdi.

O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilmoqlar. SHu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni etkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, CHingiz Ahmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat O'akimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullaev, o'ofur

¹¹ Муаллифлар уюшмаси. Ўзбекистон санъати. (1991-2001 йиллар). Т.; 2001. 9-б.

Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O‘zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaev rangtasvir ustasi xalqimiz an‘analariga, boy va sermazmun o‘tmish tasviriy san‘at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o‘z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag‘rida o‘zbekona an‘analarni, to‘ylarni, beg‘ubor o‘zbek bolalarini, lohar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo‘ldi. Jumladan, “Toshkent - tinchlik va do‘stlik shahri” triptixi, “Bola xonada”, “Intizorlik”, “YOsh oila haqida qo‘shiq” kabi o‘nlab asarlar moybo‘yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag‘ishlaydiki, undagi go‘zallik sirlari odamlarni ezgulikka etaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko‘pgina xorijiy davlatlarda ham ma‘lum va mashhurdir.

Bahodir Jalolov ham O‘zbekiston xalq rassomi bo‘lib, zamonaviy rangtasvir san‘ati rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan iste‘dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san‘at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik CH.Ahmarov, R.CHoriev, E.P.Melnikov, B.D.Korolyovlardan tasviriy san‘at sirlarini o‘rgandi. SHu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat aniq ko‘zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg‘ular uyg‘unligi tomoshabinni o‘ziga mahliyo etib qo‘yadi. U portret san‘atida ko‘p yutuqlarga erishdi. Uning to‘laqonli asarlarida o‘zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o‘z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bular ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B.Jalolov ijodida olam sirlari o‘zgacha talqin etiladi. Bunga, “Gul va Rayhon afsonasi”, “Nido”, “Baxt qushi”, “Abadiy va navqiron Xindiston”, “XXI asr Madonnasi” kabi ko‘plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyi devoriga ishlangan monumental ko‘rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e‘tiborini o‘ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin boy tarix sahifalariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. B.Jalolov ijodi shu jihati bilan qadrlidir.

Xaykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro'ziboev faoliyatida yaqqol qurish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan D.Ro'ziboev haykaltaroshlik olamiga asosan 60 yillarda kirib keldi. San'atkor ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xosligini harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz. SHu bilan birga u portret janrida ham ijod qiladi. San'atshunos olim R.Toqtash obrazi, rassom V.Savitskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz obrazlari to'laqonli o'z ifodasini topgan. D.Ro'ziboev haykaltaroshlik san'atida katta bir maktabni o'tab kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang uslublarga boy. Buni biz san'atkor ijodida rangli haykaltaroshlik san'atining yuzaga kelganligi orqali guvohi bo'lishimiz mumkin. Ro'ziboev haykallaridagi shakl va hajmlarga bo'yoq berish bilan ularning sehrli olamini yanada mo'jizali qila oladi. San'atkor bu bilan qoniqmasdan haykalda aks ettirilayotgan voqeani rangin sirlarini matolarda yanada to'ldiradi. YAna bir muhim tomoni D.Ro'ziboevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San'atkor ko'tarinki ruh bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o'rganib, o'z haykallarida mujassamlashga intiladi. O'aykaltaroshning ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida hissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma'naviyatini tobora to'laroq qamrab ifodalashga harakat qiladi. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi - jahon tasviriy san'ati tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston san'ati boy merosga ega. O'ozirgi zamonda esa bizning rassomlarimiz va haykaltaroshlar butun dunyoga taniqli bo'lib qolgan. Dekorativ-amaliy san'atimiz esa qadim zamonlardan odamlarni zavqlantirib kelgan. Ustalarimiz ijodi nafaqatgina mustaqil O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o'z obro'e'tiboriga ega.

2.2. Mustaqillik yillari O‘zbekiston rangtasvirida portert janri.

XX asr oxirlariga kelib dastgohli rangtasirda badiiy jarayon birmuncha shiddatli va serqirra kechdi. Chunki, bu paytga kelib O‘zbekiston mustaqillikka erishgan, rassomlarning ham erki o‘z qo‘llarida edi, bu esa ularning ijodida o‘z aksini topdi. Shuning uchun ham biz ilmiy tadqiqot ishimizda XX asrning so‘nggi o‘n yilligini alohida o‘rganishni lozim topdik.

1991-2000 yillar davomida bo‘lib o‘tgan ko‘p sonli ko‘rgazmalar shuni tasdiqlaydiki, mazkur davrning dastgohli rangtasviri uslublarning ko‘pligi va kompozitsion echimning turli-tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu esa o‘z navbatida rassomlarga yaratilgan ijodiy erkinlik hamda badiiy tasvirni aks ettirishda shakl va ifoda vositalarini mustaqil tanlash imkoniyatini bergan yangi davrga har tamonlama bog‘liq bo‘ldi.

Bu davrga kelib mamlakatimizda Mustaqillik kuniga, milliy udum va bayramlarimizga bag‘ishlab muntazam ravishda shaxsiy hamda guruhiiy ko‘rgazmalar tashkil qilish an‘anaga aylandi. Ko‘rgazmalarda etuk va namunali rangtasvir asarlarni namoyish etish esa o‘z navbatida o‘sib kelayotgan yosh avlodni badiiy didi va saviyasining o‘sishiga, kamol topishiga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida badiiy ta‘lim markazlarini kengaytirish dolzarb masala deb qaraldi. 1997 yilga kelib, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil qilish bilan bir qatorda boshlang‘ichdan to oliy ta‘limgacha bo‘lgan badiiy ta‘lim tizimi paydo bo‘ldi. Milliy rassomlik va dizayn instituti, Respublika san‘at va madaniyat, hunarmandchilik kollejlari va rassomchilikka ixtisoslashgan litsey-internatlar, shuningdek, O‘zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda tasviriy va amaliy san‘at o‘quv yurtlaridan iborat tarmoq vujudga keldi.

Bu davrda dastgohli rangtasvirning Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Nukus kabi ko‘zga ko‘ringan markazlarining faoliyati alohida diqqatga sazovvor bo‘ldi. Toshkentda an‘anaviy tarzda viloyatlarning san‘at va madaniyat kunlarini tashkil qilish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, bizning Namangan viloyati rassomlari 1997 yilning aprel oyida birinchilar qatori bu tadbirda faol

ishtirok etdilar. Ko'rgazmaga viloyat rassomlari bilan bir qatorda Namangan davlat universiteti professor-o'qituvchilari va iqtidorli talabalari ham o'zlarining munosib ulushlarini qo'shdilar. Bu haqda marxum ustoz, san'atshunos olim Abdulxay Rashidovich Umarov ko'rgazmani ochilish marosimida "Mustaqillik yillarida Namangan san'ati, jumladan, dastgohli rangtasvir misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Bunga Namangan davlat universitetida faoliyat ko'rsatayotgan rassom-pedagoglarimizning ham qo'shgan katta xissalarini ham alohida ta'kidlashimiz kerak"-deb so'zlagan edi.

Portret janri O'zbekiston rassomlarining kuchi jihatlaridan biri hisoblanadi. YUrtimizda kuchli realistik maktab tarkib topishi juda ham kuchli, ajoyib portretchi-rassomlar sulolasini vujudga keltirdi. Ular orasida A. Abdullaev, R. Axmedov, R. CHoriev, T. Ogonesov, V. Burmakin kabi portret ustalari jahonda tan olinganligi keng e'tirof etiladi. Mustaqillikning ijobiy ta'siri bois san'atning barcha yo'nalish va uslublarida erkin ijod yo'li ochilganligi portret janrida ham o'z aksini topdi va zamonaviy badiiy jarayonda portret janri etakchi bo'lib qoldi.

Respublikamizning etakchi badiiy oliygohi K. Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutida, aynan realistik maktab asosida mashg'ulotlar olib boriladi. Bu esa rangtasvirning realistik uslubida mo'yqalam tebratgan ijodkorlarimizning boy merosini tan olinganligi hamda jahon san'atining ilg'or tajribalarini chuqur o'rganishdan dalolat beradi. Butun dunyodagi kabi avangard yo'nalish bilan bir qatorda realistik yo'nalish rivojiga ham alohida e'tibor bilan qaralganligini har tomonlama namoyon qiladi.

1990 yillarda o'zbek portret janrining asoschisi, akademik Abdulhaq Abdullaev ijodiy faoliyatini davom ettiradi. Ustoz mo'yqalamiga mansub bo'lgan har bir portret kishilarning chuqur ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi, rassom bilan portret qahramoni va o'z o'rnida portret va tamoshabin o'rtasidagi haqiqiy va ochiq munosabatni, o'zaro muloqotni angatuvchi manbaa desak mubolag'a bo'lmasa kerak. 1999 yilda Abdulhaq Abdullaev 1984 yilda yaratgan mashxur avtorportretini turli davr va xalqlarga mansub buyuk rassomlarning avtoportretlari saqlanayotgan dunyoning yirik to'plami, Italiya davlatining Uffitsi kartina

galereyasiga olinishi O‘zbekiston san’ati uchun olamshumul voqea bo‘ldi. Boshqacha qilib aytganda, XX asr O‘zbekiston portret janriga berilgan yuqori va xolis baho desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Akademik Raxim Axmedov portretlarida epik kenglik va teranlikni ko‘ramiz. Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloqning mehnatkash kishilari bo‘lib, ular orqali rassom sharqona donishmandlikni, ma’naviy poklikni, o‘zbekona ahloqiy qoidalarni gavdalantiradi. Bunday asrlarga 1992-1993 yillarda ishlangan “Jizzaxlik ayol”, “Nigina” portretlarini misol qilib keltirish mumkin.

Zamondoshlar obrazi akademik Ro‘zi CHorievni ham o‘ziga jalb qiladi. Rassom viloyatlarga qilgan ko‘p sonli ijodiy safarlarining maxsuli sifatida butun boshli portretlar galereyasini yaratadi. Ular orasida “Boysunlik qariya” (1996), “Sayroblik go‘zal” (1997) singari o‘z xalqining eng yaxshi ma’naviy-axloqiy fazilatlarini tarannum etuvchi murakkab kompozitsion echimga ega bo‘lgan portretlari alohida diqqatga sazovvor hisoblanadi.

Akmal Ikromjonovning portretlari esa yuksak mahorat va diqqat bilan ishlanganligi, bo‘yoqlarning fakturali qo‘yilishi, naturani fotosur‘at darajasida taxlil qilib aks ettirilganligi, obrazning ruxiy to‘laqlonligi 1993 yilda yaratilgan “Malika portreti”, “Madina” asrlarida ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Rustam Xudayberganovning portretlari ham kishini befarq qoldirmaydi. Bunga uni 1999 yilda ishlangan “Xojar xola” asarini misol qilib keltirish mumkin. Rassom avvalgi rassomlar uslubini qo‘llagan holda, xech qanday yordamchi vositalarsiz, to‘q fonda portretlar yaratadi va bu esa o‘z o‘rnida asar qahramoni qiyofasini yanada mukammal ochib berish imkoniyatini oshiradi.

Bu davrga kelib O‘zbekiston dastgohli rangtasvir san’atida o‘zbek ayol-rassomlari ham ko‘pchilikni tashkil qiladi, uni ham portret janridagi ijodini alohida ta’kidlash lozim. Bunga birgina misol qilib, “Onalar va bolalar yili ” munosabati bilan tashkil etilgan “Qo‘li guldir o‘zbek ayolin” mavzusidagi ko‘rgazmada bir qator ayol portretchi rassomlarning faol ishtirok etganligini keltirishning o‘zi kifoya qiladi. Ko‘rgazmada A.Mamatova “YUlduz Usmonova portreti”,

SH.Abdullaevaning “O‘zbek madonnasi”, M. SHumaevaning “Lola” portreti, Z.SHaripovaning “Avtoportret”lari namoyish etilganligi taxsinga sazovvordir.

XX asr oxirlariga kelib realistik yo‘nalishda ijod qilgan rassomlarning yangi avlodiga mansub iste’dodli ayol rassomlar orasida shaxsiy ko‘rgazmasi bilan ko‘pchilik tanqidchilar va tamoshabinlar e’tiborini tortgan Z. SHaripova ijodini alohida tilga olish mumkin.

2.3. Raxim Axmedovning portret janridagi ijodiy faoliyati.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek portret san'ati yuksalib rivojlandi. Portret sohasini Lutfulla Abdullaev, Abdulxak Abdullaev, Raxim Axmedov, Malik Nabievlar samarali ijod qilib kelmoqdalar. Lutfulla Abdullaevning «Mulla to'ychi Toshmuxamedov», «Y.Axunboboev» portretlari realistik an'analarda mohirona tasvirlangan. Abdulxak Abdullaev birinchi o'zbek portretchi rassomlardan biri bo'lib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U o'z zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni adabiyot va san'at namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

«Abror Xidoyatov Otello rolida», yozuvchi «Oybek» portreti muallifining shox asarlaridan bo'lib, Otelloni o'ychan boqishi, gavda harakati portretga romantik ko'tarinkilik ruxini baxsh etgan. Unda yuz ifodasi psixologik xolati mohirona tasvirlangan. Oybek portretida shoir siymosi kompozitsiya jihatidan juda chuqur va mukammal ochib berilgan. Rassom bu asarda inson qiyofasini abadiylashtiribgina qolmay, balki hamma yuksak insoniy fazilatlar egasi, otash qalb xayajon va tashvishga to'la buyuk yozuvchining jonli portretini yaratdi.

Rahim Axmedov portret janrida hayotga chuqurroq yondoshdi. Inson ichki kechinmalarini, xis-tuyg'ularini, orzularini, insonning go'zallik qalbini o'z asarida ochib beradi. Uning «Ona o'ylari», «Surxandaryolik ayol», «Dehqon portreti» yorqin misol bo'la oladi. Malik Nabiev asosan portret janrida zamondoshlari bilan bir qatorda tarixiy allomalar obrazini xam yaratish ustida ko'p mehnat qiladi. U 1952-yili «Beruniy» obrazini yaratdi. 1993-yili buyuk sarkarda «Amir Temur portreti»ni yaratdi. Portret kompozitsiyasini yaratishda rassomlarning o'ziga xos uslubi mavjud, u adabiy qo'lyozma, etnografik xujjatlardan unumli foydalanadi.

Portret mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: kalla portreti, ko'krak qiyofali portret (byust), yarim gavda portret, butun gavda qiyofasi portreti, portret kartina, guruxli portret, miniatyura portreti va hokazo.

Portret kompozitsiyasining tuzilishida insonning tashqi va ichki qiyofasi, uning ruxiyati, shuningdek ko'li, o'tirish holati, liboslari, intererdagi predmetlar asosiy vosita sifatida muxim rol o'ynaydi. Har bir rassom portret yaratishda o'z tajribasi,

usuliga tayanadi. Bunga har xil kutilmagan holatda, rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo'la oladi. Baxodir Jalolovni kinorejissyor «Komil YOrmatov» portreti shu fikrimizni tasdiqlaydi.

SHuning uchun portret yaratishda yoshlar ulug' portret ustalari tajribasini o'rganib. Ularda unumli foydalanishlari lozim. Portretchi rassom avval tasvirlanuvchi bilan chuqurroq tanishib, bir muncha davrda uni kuzatib, suxbatlashib, uni asosiy harakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yaxshi o'rganishi kerak, M. Nesterovning shogirdi P. Korin doim bu amallarga sodiq qolib A.Tolstoy, N.Kachalov, M.Nesterov, N.Saryan portretlarni shu tarzda yaratdi.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi va yangi mafkuraning o'z mavqeiga erishishi natijasi o'laroq, milliy tarix qayta jonlandi. Davlatimiz ravnaqi va mustaqilligini qo'lga kiritishga ulkan xissa qo'shgan O'zbekistonning ko'zga ko'ringan madaniyat va tarix namoyondalari siyosiy unutishdan va yo'qlikdan qayta tug'ilishi bilan san'atda ularning portretlari galereyasi vujudga kelishiga turtki bo'ldi.¹²

Buyuk Sohibqiron Amir Temur obraziga respublikaning barcha rassomlari murojaat qildilar desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Bular orasida yirik rassomlar, akademiklar Malik Nabiev va Ne'mat Qo'ziboevlarning ijodini alohida ta'kidlash lozim. CHunki, bu rassomlar o'ziga ishongan, xalqini g'amini eydigan, odil, jahongir hukmdor siymosini yarataoldilar. Ustoz Malik Nabiev tomonidan 1999 yilda yaratilgan Amir Temur obrazi o'zining sehrli jozibasi va kuchli ifoda vositasi, ta'siri bilan zamonaviy rassomning tarixiy portretlari orasida o'ziga xos mumtoz asarga aylandi va etalon sifatida qabul qilindi. Keyinchalik Toshkent shahri va viloyatlarga qo'yilgan Sohibqiron Amir Temur haykallariga ham aynan ushbu portret asos bo'lib xizmat qildi.

Temuriylar sulolasining boshqa vakillari ham portretchi rassomlar tomonidan katta qiziqish va ishtiyoq bilan tasvirlandi. Malik Nabiev mo'yqalamiga

¹² Муаллифлар уюшмаси. Ўзбекистон санъати. (1991-2001 йиллар). Т.; 2001. 34-б.

mansub bo'lgan Zaxriddin Muxammad Bobur portreti romantik xarakterga ega bo'lib, unda Bobur qo'liga qalam olib ijod jarayonida, ko'zlari esa olis masofalarga qadalgan holatda aks ettirilgan. Bobur siymosi Aziza Mamatova polotnosida ham ajoyib shoir sifatida o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Taniqli portretchi rassom S.Rahmetov Temriylar davri tarixiy shaxslar obrazlarini mahorat bilan yaratadi. O'zbekiston Milliy Banki va Temuriylar tarixi Davlat muzeyi 1999 yilda etakchi portretchi rassomlar ishtirokida Temuriy shahzodalar portretlari tanlovini e'lon qiladi.

Andijonlik rassom Ulug'bek Boltaboev tomonidan ham Bobur va Temuriy shaxzodalarning portretlari ishlanadi. Ayniqsa, rasomning Bobur siymosiga juda ko'p marotaba murojaat qilinishi bilan alohida ajralib turadi. Rassomning "Bobur ovda", "Bobur Samarqandda", "Bobur Xindistonda" kabi ko'plab asrlari misol bo'laoladi.

Temuriy malikalar siymosiga bag'ishlab ishlangan turkum portretlar Orif Muinov mo'yqalamiga mansub asarlar sirasiga kiradi. Bu portretlarda rassom SHarq ayollari ("Bibixonim", 1997)ga xos shoirona va jozibali jihatlarni aks ettiradi.

Bundan tashqari bu davrga kelib san'at va madaniyat arboblarning obrazlarini yaratish ham rassomlarda katta qiziqish uyg'otganligini ham quvonchidan ta'kidlash lozim. Temuriylar davri buyuk minatyurachi rassomi Kamoliddin Behzod ishlagan va hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan portreti Akmal Ikromjonovning "Kamoliddin Behzod" (1990) rangtasvir kompozitsiyasiga hamda Abdulhaq Abdullaevning Alisher Navoiyiga (1997) bag'ishlangan polotnolariga asos bo'lib xizmat qildi. CHingiz Axmarov esa shoir Nodiraning (1992) go'zal va latif qiyofasini yaratdi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish jarayonida rassom oldida juda ham mushkul vazifa turadi. CHunki, barcha tarixiy shaxslar haqida, ularning tashqi ko'rinishi, qiyofasi to'g'risida hamma vaqt ham etarli darajada ilmiy manbaalarni topish juda qiyin hisoblanadi. Portretni naturadan ishlash boshqa, xayolan, tasavvur asosida ishlash esa butunlay boshqa hisoblanadi. Qolaversa, ushbu portret

orqali muayyan bir tarixiy davrga ham, odamlarning turmush tarziga, u davr kishisining tashqi qiyofasi, kiyinishiga ham baho beriladi. Natijada esa oʻzida zamonasi ruxini umumlashtirgan ramziy portretlar ham vujudga kelgan. T. Kuryazov va E. Masharipovlarning “Jaloliddin Manguberdi”ga (1997) bagʻishlangan asarlari, M. YOʻldoshevning “Alpomish” (1998-2000) dostoni qahramonlariga bagʻishlangan turkum ishlari, E. Masharipovning “Alpomish” (1998), Q. Basharovning “Spitamen” polotnolari shular jumlasidan hisoblanadi. Tarixiy merosimizni yoritishga 2000 yilda boʻlib oʻtgan “SHaxidlar xotirasi” koʻrgazmasida “Jadidlar” portreti turkumlari bilan ishtirok etgan A. Ikromjonov, T. Qoʻziev, M. Nuriddinov, S. Raxmatov kabi rassomlar ham katta hissa qoʻshganlar.

Ushbu portretlarni yaratishda tarixiy-ilmiy manbaalar va liboslar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrga mansub boʻlgan yozma manbaalar, meʼmoriy obidalarni aks ettirilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fikrni tasdiqlashda A. Aliqulovning etnografiyaga urgʻu berilgan – yaʼni maishiy hayot buyumlari, oʻsha davr binolarining intereri, kashtachilik, gilamdoʻzlik, liboslaru, qurol-aslahalarni qunt bilan ishlagan “Asov ot”, “Dor”, “Mashshoqlar” (1997) kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

1990 yillarda portret janrida sermaxsul ijod qilgan rassomlar sirasiga Baxodir Jalolovni qoʻyish mumkin. SHuni alohida taʼkidlash kerakki, realistik asarlar yaratishda u mislsiz darajada yutuqlarga erishadi va bu borada unga hech bir boshqa rassom tenglasha olmaydi. Rassomning 1992 yilda ishlagan “Saudiya Arabistoni qiroli Araviy Faxd ibn Aziz”, 1998 yilda yaratgan “Akademik Sarvar Azimov portreti” va shu kabi boshqa koʻplab asrlari musavvirning oʻzbek rangtasvirchi rassomlar orasida dunyo talablari darajasida va undan ham yaxshiroq asar yaratuvchi rassomlari borligidan dalolat berib turadi.

S. Raxmetov ijodida portret asosiy oʻrinini egallaydigan rassomlar sirasiga kiradi. Rassomning asr oxirlarida yaratgan eng yaxshi portretlari “YUnus Rajabiy portreti” (1993), “Germaniyaning Oʻzbekistondagi elchisi G. Kun portreti” (1999) hisoblanadi.

XULOSA

Tasviriy sanat o'sib kelayotgan yosh avlodni siyosiy, manaviy, g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishda, sanat asarlarini o'rganishda, ulardan bahra olishda, izlanuvchanlik, ijodkirlik va bunyodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biriruv malakaviy ishimiz mavzusini "XX asr O'zbekiston tasviriy san'atida portret janri" mavzusida olinishiga sabab ham yoshlar tarbiyasida beqiyos rol o'ynaydigan tasviriy sanatning rangtasvir turining portreti janrida ijod qilgan rassomlarni aniqlash va ushbu tarixiy davrga ilmiy baho berish edi. Nima uchun aynan XX asrni tanlaganimizni boisiga kelsak, bu davrda O'zbekistonda dastgohli rangtasvir san'ati, jumladan portret janri rivojlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ushbu davr rassomlari orasidan birinchilardan bo'lib etishib chiqqan o'zbek portret sang'ati ustalarini aniqlash maqsad qilib olingandi.

Biz tadqiqot ishimizda avvalo, O'zbekistonda dastgohli rangtasvir sanatini shakllanishiga o'z ulushlarini qo'shgan rassomlarni o'rganib chiqdik. Bu ishda katta ahamiyat kasb etgan, xorijdan O'zbekistonga kirib kelgan rassomlar va ularning ta'sirida etishib chiqqan maxalliy rassomlar ijodida portret janrini ilmiy tahlil qildik.

Tadqiqotimiz jarayonida XIX asr oxirlaridan boshlanib xorijdan kirib kelgan rassomlar evaziga vujudga kelgan dastgohli rangtasvir san'atiga XX asr boshlaridan etishib chiqqan o'zbek rassomlarini qo'shgan xissalarini o'rgandik. Bu asrda bo'lib o'tgan II-Jahon urushi va uni rassomlar ijodiga ta'siri ham bizlarni befarq qoldirmadi. Ayniqsa, asr oxirlariga kelib qo'lga kiritilgan mustaqillik bergan ijodiy erkinlik, rangtasvir san'atidagi milliylik va zamonaviylikni o'rganib chiqqanimizda bu davrning o'zi alohida ilmiy tadqiqot ishlarini va o'z echimini kutib turganligi muxim masala ekanligiga amin bo'ldik.

Shuning uchun ushbu davr rassomlarning ko'plab asarlarini baholi qudrat tahlil qilib, ulardagi o'ziga xoslikni o'rganib chiqdik. Ammo, juda ham katta tarixiy davrni o'rganganligimiz bois ko'plab asarlarni o'rgana olmay qolganligimiz

bizning kamchiligimiz hisoblanadi. Shunga qaramay biz birinchilardan bo'lib O'zbekiston portret janri masalasiga ilmiy yondashgan tadqiqotchilardan bo'lganligimizdan mamnunmiz.

To'g'ri ishimiz kamchiliklardan holi emas. SHuning uchun ham, olib borilgan tadqiqotimiz natijalari asosida quyidagi taklif va mulohazalarimizni bildirishni lozim topdik:

- Bakalavriat bitiruv malakaviy ishi uchun butun boshli bir asr san'atini o'rganish murakkablik qilishini inobatga holda keyingi tadqiqot ishlarida muayyan bir kichikroq tarixiy davr yoki oqim, uslub, yo'nalishga asoslangan tadqiqot ishlarini olib borish lozim;
- O'zbekiston tasviriy san'atida XX asr juda ham katta ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda ushbu asr san'atining har bir turi va janrlarini alohida-alohida o'rganish kerak;
- O'zbekiston san'ati tarixi, taraqqiyotida o'ziga xos ijodi bilan alohida ahamiyat kasb etgan, o'chmas iz qoldirgan rassomlar ijodini ham alohida ilmiy taxlil qilish lozim;
- Sobiq Ittifoq davri san'atiga tanqidiy ko'z bilan qarabgina qolmay, bu davrda faoliyat ko'rsatgan rassomlar ijodining milliylik xususiyatlarini o'rganib chiqish zarur;
- Portret janrida ijod qilgan rassomlar haqida maxsus ilmiy risola, o'quv adabiyotini yaratib, uni o'quvchi-yoshlarga tasviriy sanat o'qituvchilariga etkazish va ular asosida o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini yanada yaxshilashga erishish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategii. T.; "G'ofur G'ulom" nashriyoti. 2017 yil 72 bet.
2. Mirziyoyev Sh. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora–tadbirlar dasturi to'g'risida\\ "Murabbiy" gazetasi. № 18, 2017 y.
3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil. 16 yanvar.
4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.; 2010 y.
5. Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. \\ "Xalq so'zi" gazetasi. N.; 14, 2012 y. 4 bet.
6. Karimov I.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlantirish avlodni tarbiyalash– mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti \\ Xalq so'zi gazetasi 2012 y. 18 aprel № 35
7. P.Sh.Zoxidov Farg'ona naqshi. (Xalq ustasi Saidahmad Norqo'ziev albomidan). T.:O'z. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1960
8. M.Rahimov. O'zbekiston badiiy keramikasi. T., 1961 y.
9. D.Ibrohimov, N.Sa'dullaev Toshkent chinnisi. T., 1977 y.
- 10.I.Azimov "O'zbekiston naqshu nigorlari". - T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978 y.
- 11.G.Lukich. Keramik buyumlarni badiiy loyixalash., T., 1978 y.
- 12.X.Egamov. Bo'yoqlar bilan ishlash. T.: "O'qituvchi", 1981 y.
- 13.S.S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy san'ati bezagi T.: "Mehnat" 1991 y.
- 14.S.S.Bulatov O'zbek xalq amaliy san'ati. - T.: Mehnat, 1991 y
- 15.I.Ibrat. Farg'ona tarixi. T., 1991 y.

- 16.Y.Qosimov Qadimgi Farg'ona sirlari. N., 1992 y.
- 17.A.Anorboev Farg'ona qadim va o'rta asrlarda. S. 1994 y.
- 18.Xalq amaliy san'ati. 1997 yil 30 may "22-sonli.
- 19.S.S.Bulatov. L.Dadashev. Naqsh alifbosi. T.: "Cho'lpon" 1999 y.
- 20.O'zbekiston san'ati. (99-200 yillar) Mualliflar uyushmasi, "Sharq", T., 2000 y.
- 21.A.Turg'unov.O'zbek kulolchilgi san'atining hududiy xususiyatlari.T. 2001.
- 22.N.Abdullaev. San'at tarixi. T., 1987-2001 yil.
- 23.N.Abdullaev. O'zbekiston san'ati tarixi. T., 2007 yil.

Xorijiy tildagi adabiyotlar.

1. N. N.Abdullaev. Peyzajnaya jivopis Uzbekistana. –T.; 1976
2. B.V.Veymarn. Jivopis molodых xudojnikov Uzbekistana. –T.; 1985
3. A.Egamberdiev. Janrovaya jivopis Uzbekistana. –T.; 1989
4. M.Mirzaraximov. Проблемы композиции в живописи Uzbekistana.–T.; 1989

Farmon va qarorlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi Farmoni. 1997 yil 23 yanvar. Xabarnoma.
2. "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida". 1998 yil 12 yanvar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.

Monografiya, ilmiy to'plam va kataloglar:

1. N.Koblova. Gayrat Boymatov. Katalog. –T.; 1998
2. A.Egamberdiev. Raxim Axmedov. –T.; 1994
3. A.Xakimov. Bahodir Jalol. Albom –T.; 1999
4. A.Xakimov. Sergey Alibekov. Albom. –T.; 1999
5. A.Xakimov. Akmal Nur. Katalog. –T.; 1998
6. A. Xakimov. Bahodir Jalol. Albom. T.; 1999
7. SH. Abdullaeva. Vyacheslav Useinov. Katalog. 1998

Maqolalar:

1. N. Axmedova. XX asr O'rta Osiyo rangtasviri: o'z-o'zini anglash muammolari. SAN'AT. 1999. 3-son
2. N. Axmedova. "Osiyo – Art – 97" SAN'AT. 1998. 1-3-sonlar.
3. R. Valiulina. Zamonaviylik qiyofalari. (V. Burmakin ijodida) SAN'AT. 1999. 3-son
4. A. Mirzaev. Rangtasvir xususiyati Haqida mulohazalar. SAN'AT. 2000. 1-son

Internet ma'lumotlari.

- Library.ziyonet.uz
- Gpedia.com
- Google.co.uz
- Referat.uz
- Pedagog.uz